



JIZZAX VILOYATI DO‘STLIK TUMAN HOKIMI F A R M O Y I S H I

2022 - yil 26 - yanvar

12-3-47-F/22

Do‘stlik tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 03-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risidagi” PF-29-sonli farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 03-dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-sonli qarorini ijrosini ta‘minlash hamda Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari tajribasida o‘rganish maqsadida xizmat safariga yuborish uchun mablag‘ ajratish to‘g‘risida

1. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi mudiri (A.Latifov)ga tuman mahalliy byudjetining 2022-yil zaxira mablag‘lari hisobidan, hokim yordamchilari hamda ishchi guruh a‘zolarining xizmat safari xarajatlari uchun 30.0 (o‘ttiz) mln. so‘m mablag‘ni tuman hokimligi hisob raqamiga ajratish vazifasi yuklatilsin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (O‘.Bobomurodov)ga ajratilgan mablag‘ni maqsadli sarflash vazifasi topshirilsin.

3. Ushbu farmoyishning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.b. B.Safarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



SH.Darvishev